



CHET TILLARNI O'QITISHDA ZAMONAVIY AXBOROT TEKNOLOGIYALARINING SAMARADORLIGI

Nishonboyeva Nozimaxon Sharifjon qizi,
FarDu Chet tillari fakulteti 1-bosqich talabasi

Ismoilova Dilrabo Siddiqjon qizi
FarDu Axborot texnologiyalari kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada chet tillarni o'qitishda axborot texnologiyalarining o'rni, pedagogik ahamiyati va didaktik imkoniyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim tizimida raqamli vositalardan foydalanishning zarurati, ularning til ko'nikmalarini rivojlantirishdagi samaradorligi hamda o'quv jarayonini individuallashtirishdagi roli yoritib beriladi. Shuningdek, axborot texnologiyalarining tinglab tushunish, o'qish, yozma va og'zaki nutq ko'nikmalarini shakllantirishga ta'siri hamda multimedia vositalarining imkoniyatlari keng tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: axborot texnologiyalari, chet tillarni o'qitish, raqamli ta'lim, til ko'nikmalari, multimedia vositalari, til o'rganish platformalari.

Abstract. This article scientifically analyzes the role, pedagogical significance and didactic possibilities of information technologies in teaching foreign languages. The necessity of using digital tools in the modern education system, their effectiveness in developing language skills and their role in individualizing the learning process are highlighted. The impact of information technologies on the formation of listening, reading, writing and speaking skills, as well as the possibilities of multimedia tools are also widely analyzed.

Key words: information technology, foreign language teaching, digital education, language skills, multimedia tools, language learning platforms.

Bugun XXI asr axborotlashgan jamiyat asri sifatida tan olinadi. Kun sayin shiddat bilan taraqqiy etib borayotgan hozirgi dunyoda axborot texnologiyalari insonlar hayotini sezilarli darajada o'zgartirmoqda. Bugungi kunda zamonaviy axborot texnologiyalari (AT) jamiyatdagi barcha sohalarga chuqur kirib borishga ulgurdi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Jumladan, ta'lim sohasida ham turli axborot texnologiyalari keng qo'llanilmoqda. Xususan, 2020-yil Covid-19 pandemiyasi sababli ta'lim tizimi onlayn formatga o'tishi oqibatida axborot texnologiyalariga bo'lgan ehtiyoj yanada ortdi.

Globalashuv jarayonlari, turli davlatlar o'rtasidagi siyosiy va iqtisodiy munosabatlar hamda madaniyatlararo muloqotning kengayishi zamonaviy jamiyatda xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan talabni keskin oshirdi. 2021-yil 19-mayda prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev raisligida xorijiy tillarni o'qitish tizimini takomillashtirishga qaratilgan videoselektor yig'ilishida shu yildan boshlab chet tili o'qituvchilariga xalqaro yoki milliy sertifikatga ega bo'lish talabi qo'yilgan edi. Hozirgi kunga kelib esa an'anaviy o'qitish,



metodlari zamonaviy talablarga to'liq javob bera olmayotgani sabali nafaqat xorijiy til sertifikati, balki ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish va dars mashg'ulotlarini zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda olib borish ham ustuvor vazifaga aylangan. Bugun ta'lim jarayonida axborot texnologiyalari kompyuterlar, internet tarmog'i, multimedia vositalari, interaktiv doskalar, mobil ilovalar, sun'iy intellekt tizimlari, masofaviy ta'lim platformalari kabi vositalar orqali namoyon bo'lmoqda.

Darhaqiqat, hozirda chet tillarni o'qitish va o'qishda zamonaviy texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning o'rni beqiyosdir. Ular o'rgatish va o'rganish jarayonida bir qator qulaylik va yengilliklarni kafolatlaydi. Ingliz tilini misol tarzida oladigan bo'lsak, uni o'rgatishda zamonaviy texnologik vositalar va maxsus ilovalardan foydalanish ingliz tilidagi har bir ko'nikmani ya'ni tinglab tushunish, o'qish, yozish va gapirishni kompleks rivojlantirish imkonini beradi.

Masalan, tinglab tushunish (listening) ko'nikmasini shakllantirishda kompyuterlar, pleyerlar va CD disklar yordamida talabalar autentik audio va video materiallar bilan ishlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Internet tarmog'idagi inglizcha podkastlar, videodarslar, intervyular, kino va multfilmlar esa real nutq namunalarini o'rganishga yordam beradi. Turli aksent va talaffuz variantlarini eshitish, nutq tezligini sozlash, subtitrlar orqali tushunish hamda qayta eshitish imkoniyati an'anaviy kolonkalar yoki darslikdagi sun'iy matnlarga nisbatan samaraliroq natija beradi.

Og'zaki nutq (speaking)ni o'stirishda talabalar maxsus platformalar (Zoom, Google Meet, Bla Bla English va boshalar) orqali chet elliklar bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot qilish imkoniga ega bo'ladilar. Shuningdek, sun'iy intellekt asosidagi dasturlar talaffuzni tekshiradi, nutqdagi xatolarni aniqlaydi va tavsiyalar beradi.

Elektron kutubxonalar, onlayn maqolalar va ilmiy bazalar orqali talaba keng ko'lamli matnlar bilan ishlay oladi. Bu esa uning lug'at boyligini oshiradi, tez o'qish ko'nikmasini shakllantiradi hamda kontekstual tushunishni yaxshilaydi. Natijada talabaning o'qish (reading) ko'nikmasi rivojlanadi.

Bugun yozma nutq (writing) ko'nikmasini shakllantirish uchun maxsus grammatik tekshiruv dasturlari va sun'iy intellekt vositalari yaratilgan. Ushbu texnologiyalar talabalarining yozma ishlari (maqola, tezis, essay)ni tahlil qilib, xato va kamchiliklarini ko'rsatadi. Bu esa talabaning o'z ustida ishlashiga yordam beradi.

Pedagogik nuqtayi nazardan, axborot texnologiyalari o'quv jarayonini individuallashtirish, o'quv materiallarini vizuallashtirish, talabaning mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, o'quv jarayonining interaktivligini oshirish, shu bilan birga nazorat va baholash tizimini avtomatlashtirish imkonini beradi.

Shuningdek, multimedia vositalari ta'lim sifati hamda talabalarining o'zlashtirish samaradorligini oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Multimedia – matn, ovoz, rasm, animatsiya va videoni birlashtirgan vosita bo'lib, o'quv jarayonini qiziqarli va tushunarli qiladi. Masalan, interaktiv taqdimotlar orqali grammatik qoidalar sxema, jadval yoki animatsiyalar yordamida tushuntirilganda, talaba ma'lumotlarni tezroq o'zlashtiradi. Chet,





tillarni o'qitish davomida shu singari axborot texnologiyalaridan foydalanish talabalarning vizual xotirasini faollashtiradi, murakkab grammatik tushunchalarni ularga sodda shaklda tushuntiradi hamda o'qishga bo'lgan ishtiyoqini ishiraadi.

Bundan tashqari, bugungi kunda ta'lim muassasalarida o'qitish sifatini oshirish va talabalarning tahsil olishida ularni qo'llab-quvvatlash maqsadida yurtboshimiz tomonidan juda ko'p shart-sharoitlar yaratilmoqda, maktab, kollej, litsey va boshqa bilim yurtlari ilg'or texnologiyalar bilan jihozlanmoqda. Bunga misol qilib whiteboard (oq doska), elektron doska, proektor, shaxsiy notebook va smart TVlarni aytishimiz mumkin. Ushbu texnologiyalar bilan o'tilgan interfaol darslar yaxshigina samara bermoqda. Zero, muhtaram prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: "Eng yaxshi investitsiya – ta'limga yo'naltirilgan sarmoya".

Axborot texnologiyalari taraqqiyotning yuksak cho'qqisiga chiqqan bugungi davrda insonlar xorijiy tillarni o'rganish uchun avvalgidek kurslarga qatnashi shart emas. Endi ular shunchaki o'z shaxsiy telefon yoki kompyuterlarida maxsus platformalar orqali istagan joyida va vaqtida istagan tillarini o'rganishlari mumkin.

Bla Bla English – bu, asosan, ingliz tilini o'rganish uchun yaratilgan mobil ilova bo'lib, u, ayniqsa, gapirish (speaking) va tinglab tushunish (listening) ko'nikmalarini rivjlantirishga qaratilgan. Bu ilova darslarni oddiy va qisqa shaklda berishi tufayli o'zlashtirishga qulay. Ilovadagi dialog asosidagi darslar kundalik hayotda ishlatiladigan gaplarni o'rgatsa, audio yozuvlar so'zlarning talaffuzini eshitib, takrorlash imkonini beradi, shuningdek, qiziqarli testlar va mashqlar so'z boyligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Duolingo ilovasi – bu dunyodagi eng mashhur til o'rganish ilovasi bo'lib, 40 dan ortiq tillarni o'rganish imkonini beradi. Ilovaning o'ziga xos jihati shundaki, u tilni o'rgatishda darslarni o'yin tarzida olib boradi. Turli qiziqarli o'yinlar orqali tashkil etilgan darslar o'rganuvchilarning tezroq o'zlashtirishiga yordam beradi. Shuningdek, Duolingo ilovasi foydalanuvchining bilim darajasiga moslasha oladi ya'ni o'rganuvchining bilimiga qarab topshiriq va o'yinlarni o'zgartiradi. Biroq bu ilovaning asosiy kamchiligi shuki, undagi darslar, asosan, testlar orqali tushuntirilishi sababli gapirish (speaking) ko'nikmasi chuqur o'rgatilmaydi.

FluentU ilovasi – film, intervyu, reklama, musia va vloglar orqali tilni tabiiy muhitda o'rgatadi. Videolarni tomosha qilish davomida pastda subtitrlar chiqib turadi, bu esa til o'rganishni osonlashtiradi. Bundan tashqari, videodagi har bir so'zni bosib tarjima, misol va tallafuzni ko'rish mumkin.

Shu va shu singari texnologiyalardan foydalanib ko'plab tillarni, jumladan, ingliz, rus, arab, ispan, fransuz, nemis, italyan, irland, golland, xitoy, koreys tili kabilarni o'rganish mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, xorijiy tillarni o'rgatish davomida innovatsion texnologiyalardan foydalanish talabalarning darsga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi va darslarning o'zlashtirilishini osonlashtiradi. Zero, ijtimoiy tarmoqlar, maxsus platformalar va boshqa axborot texnologiyalari chet tillarni mukammal o'rganish uchun samarali yo'llardan biri bo'lib xizmat qiladi.





FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Anorjonova Z. (2024) Chet tillarini o'qitishda axborot texnologiyalarning qulayliklari va unga bo'lgan ehtiyojlar.
 2. Ibadova N, Abdurashidova D. Chet tillarini o'rganishda texnologiyaning o'rni.
 3. Ikramova X. (2021) Chet tili darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanish.
 4. Lutfullayeva M, Aliyev D. Chet tillarni o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanish.
 5. Sindarov J, Hafizov Sh. Xorijiy tillarni o'rganishda axborot texnologiyalarining ahamiyati.
 6. Toshpulatova F. (2026) Chet tillarini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari.
- 